 <https://doi.org/10.63241/2026160akhv>

## YERLARNING ME'YORIY QIYMATINI ANIQLASHDA AVTOMATLASHGAN AXBOROT TIZIMLARINI QO'LLASH

Shukurbekov Ibrohimjon Baxtiyor o'g'li 

“O'zdavyerloyiha” DILI Bosh mutaxassisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yerlarning me'yoriy qiymatini aniqlash jarayonini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari hamda ushbu jarayonga avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish zarurati asoslab berilgan. Hozirgi vaqtda yerlarning me'yoriy qiymatini hisoblash ishlari ko'p omilli, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashni talab etadi. Tadqiqotda yer bahosiga ta'sir etuvchi asosiy omillar — tuproq boniteti, agroiqlimiy sharoit, sug'orish holati, infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasi kompleks tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, baholash, iqtisodiyot, tuproqlar, yerlarning me'yoriy qiymati, avtomatlashtirilgan axborot tizimi, takomillashtirish, xatoliklar.

**Аннотация.** В данной статье представлены научно-методические основы для совершенствования процесса определения нормативной стоимости земли и обоснована необходимость внедрения в этот процесс автоматизированных информационных систем. В настоящее время расчет нормативной стоимости земли носит многофакторный характер и требует обработки больших объемов данных. В исследовании представлен комплексный анализ основных факторов, влияющих на цены на землю, – качества почвы, агроклиматических условий, состояния орошения и уровня обеспеченности инфраструктурой.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, оценка, экономика, почвы, нормативная стоимость земли, автоматизированная информационная система, улучшение, ошибки.

**Abstract.** This article provides a scientific and methodological basis for improving the process of determining the normative value of land and the need to introduce automated information systems into this process. Currently, the calculation of the normative value of land is multifactorial, requiring the processing of large amounts of data. The study provides a comprehensive analysis of the main factors affecting land prices - soil quality, agro-climatic conditions, irrigation status, and the level of infrastructure provision.

**Keywords:** agriculture, assessment, economics, soils, land standard value, automated information system, improvement, errors.

## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

### KIRISH

An'anaviy usullarda ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash katta hajmdagi ma'lumotlarni talab qiladi va inson omiliga bog'liq xatoliklar, subyektivlik va vaqt yo'qotilishiga olib keladi. Shu sababli zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida yerlarning me'yoriy qiymatini aniqlash jarayonini avtomatlashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari (AAT) bu jarayonda ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini yaratadi, baholash jarayonining aniqligi va shaffofligini ta'minlaydi.

Respublikamizda bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos holda yer tuzish, yer kadastri va yer monitoringi ma'lumotlarini integratsiyalash orqali agrar sohada mavjud yerlardan maqsadli foydalanishni tashkil etishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "...qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarini turli xil tabiiy ofatlar va boshqa xatarlardan ko'riladigan zararlardan sug'urtalash orqali himoyalash" kabi muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan yerlarning me'yoriy qiymatini baholash uslubiyatini takomillashtirish bugungi kundagi muhim ustuvor vazifalardan hisoblanadi.


Ma'lumki, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi hozirgi sharoitda inson faoliyatining turli sohalarida, insonning tabiat bilan o'zaro ta'sirida, foydali qazilmalarni qazib olishda va boshqa sohalarda barqaror rivojlanish dasturlari doirasida tadqiqotlar o'tkazish uchun eng samarali iqtisodiy vositalarni tanlashni talab etadi. Bularning barchasi yerlarning me'yoriy qiymatini aniqlashda hisobga olinishi kerak. Yer uchastkalarini baholash faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir, chunki yer uchastkalari ko'chmas mulkning boshqa barcha turlarini joylashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, har qanday kapital qurilish loyihasini amalga oshirish uchun yer uchastkasi sotib olinishi zarur. Sotib olish usullari turlicha bo'lishi mumkin: mahalliy hokimiyatdan ijaraga olish, ipoteka, oldi-sotdi shartnomasi asosida sotib olish va shu kabilar.

Yerlarning me'yoriy qiymatini aniqlash masalasi "O'zdavyerloyiha" DILI tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli ushbu xisob-kitoblarni avtomatlashgan tizimda ishlashni taklif qilamiz. Ilmiy-texnik adabiyotlarda "Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari" atamalaridan ko'p foydalaniladi. "Tizim" atamasi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, o'zaro bog'langan va belgilangan yaxlitlik, birlikni tashkil qiluvchi bir qator elementlardan tashkil topgan bir butunlikni bildiradi. "Tizim" tushunchasi keng soxalarda qo'llaniladi.

"Tizim" ostida faoliyat yuritilishi aniq, foydali natija olishga yo'naltirilgan qismlar va elementlarning o'zaro mantiqiy va tashqi muxit bilan bog'likli majmuasi tushuniladi. Bu tarifga muvofiq, amalda xar bir iqtisodiy obyektini o'z faoliyat yuritishida belgilangan maqsadga erishishga xarakat qiluvchi tizim sifatida ko'rib chiqish mumkin. Misol sifatida ta'lim, energetika, transport, iqtisodiy va boshqa tizimlarni aytish mumkin.


## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Avtomatlashgan axborot tizimi tushunchasi - axborotlarni to'plashda, saqlashda va ularni qayta ishlashda qo'llaniladigan iqtisodiy matematik usullar va modellar, boshqaruv qarorlarini yaratishda ishtirok etuvchi texnik, dasturiy, texnologik vositalar va mutaxassislar majmuasi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimi ta'minlovchi va funksional qismlardan iborat bo'ladi. Ta'minlovchi qism axborot, texnik, matematik, dasturiy, tashkiliy, huquqiy va lingvistik ta'minotni o'z ichiga oladi. Ta'minlovchi qism tarkibi quyi tizimlarning faoliyatini belgilaydi va miqdoriy jixatdan qat'iy belgilanadi. Ular quyidagilardan iborat (1-rasm):



1-rasm. AAT ta'minot vositalari

AATning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib ularga quyidagilar kiradi (2-rasm):



2-rasm. AATning asosiy xususiyatlari tasnifi

## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Tizimning murakkabligi - unga kiruvchi tarkibiy qismlarning ko'pligi, ularning tarkibiy o'zaro xamkorligi, ishlab chiqish va tashqi aloqalarning murakkabligiga xamda dinamikligiga bogliq.

Yer resurslarini iqtisodiy baholash tizimini takomillashtirish, xususan yerlarning me'yoriy qiymatini aniqlash jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu jarayonda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini (AAT) joriy etish yer bahosining aniqligi, obyektivligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yerlarning me'yoriy qiymati ko'plab omillarning kompleks ta'siri ostida shakllanadi. Jumladan, tuproq boniteti, agroiklimiy sharoit, sug'orish va meliorativ holat, yer uchastkasining joylashuvi, ishlab chiqarish infratuzilmasiga yaqinligi hamda yerning maqsadli foydalanish turi ushbu qiymatni belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Mazkur omillarni an'anaviy usullarda baholash katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashni talab etadi, bu esa inson omiliga bog'liq xatoliklar ehtimolini oshiradi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari yerlarning me'yoriy qiymatini aniqlashda ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini yagona platformada amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu tizimlar tarkibida geografik axborot tizimlari (GIS) markaziy o'rin egallaydi. GIS texnologiyalari yordamida yer uchastkalarining fazoviy joylashuvi, tuproq va meliorativ ko'rsatkichlari raqamli qatlamlar ko'rinishida modellashtiriladi hamda ularning iqtisodiy bahoga ta'siri aniqlanadi.

Shuningdek, yer kadastr ma'lumotlari, masofadan zondlash natijalari (aerokosmik suratlar), agrotexnik va statistik ko'rsatkichlarning integratsiyasi avtomatlashtirilgan baholash modellarini shakllantirish imkonini beradi. Natijada yerlarning me'yoriy qiymati matematik-iqtisodiy modellar va algoritmlar asosida avtomatik hisoblab chiqiladi, hududlar kesimida taqqoslama tahlillar o'tkazish imkoniyati yaratiladi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yerlarning me'yoriy qiymatini aniqlashda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini qo'llash yer baholash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi, baholashning aniqligi va shaffofligini ta'minlaydi hamda yer resurslarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri) 2019-yil



---

## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

---

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning normativ qiymatini aniqlash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 744-son qarori. 2025-yil 26-noyabr.

4. Avezbayev S., Muqimov A. Yer tuzishni loyixalashda avtomatlashgan tizimlar. Toshkent: TIMI, 2020.

5. Avezbayev S., Avezbayev O.S. Raqamli texnologiyalarni qo'llab qishloq xo'jalik ekinlari monitoringini tashkil etish. - Toshkent: Agroilm, 2019.

6. Bobojonov A.R., Ro'ziboyev S.B. Cheklangan suv taqsimoti sharoitida sug'oriladigan yerlarining ishlab chiqarish qobiliyatini baholash // Agroiqtisodiyot. - Toshkent, 2019. - №2. - B. 174-177.

7. Bobojonov A.R., Ro'ziboyev S.B. Qishloq xo'jalik yerlarini qiymati (normativi)ni baholash uslublarini takomillashtirish masalalari // Irrigatsiya va Melioratsiya. - Toshkent, 2016. - №2. - B. 58-60.

8. [lex.uz](http://lex.uz)